Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish	897
Saidaxmedova Nodira Ilxamovna , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshokh Ibragimov , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	915
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish.....	922
Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili	930
Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи.....	935
Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar.....	938
Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
Холмирзаева Феруза Абдуллаевна	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна.....	949
Холбеков Расул Олимович , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari.....	956
Axmedova Nafisa Amriddin qizi	



Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish.....	962
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari.....	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar.....	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish.....	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida).....	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане.....	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari.....	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari.....	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili.....	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari.....	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish.....	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari.....	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollari.....	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari.....	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari.....	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi....	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы.....	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции.....	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili.....	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health.....	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari	1135
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
Xolikov Sarvar Xayitbayevich	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
Eshmirzayev Faruddin Iloxjonovich , tayanch doktorant, Salimova Zaxro Sobirjon qizi , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
Xasanova Nasiba Nazar qizi , tadqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi	1170
Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна	



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARI METODOLOGIYASI

Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi

TDIU "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oziq-ovqat bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlarining o'рни, oziq-ovqat bozorini rivojiga ta'sir etuvchi omilla va marketing tadqiqotlarda integratsion yondashuvlarning o'ziga hosligi aks ettirilgan. Shu bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlanish metodologiyasining ilmiy va nazariy jihatlari asoslangan.

Kalit so'zlar: bozor, oziq-ovqat, ishlab chiqarish, marketing, omillar, ko'rsatkichlar, oziq-ovqat bozori, marketing tadqiqotlari, metodologiya.

Abstract: This article reflects the role of marketing research in the development of the food market, the factors influencing the development of the food market, and the uniqueness of integrated approaches in marketing research. At the same time, the scientific and theoretical aspects of the methodology of food product market development are based.

Key words: market, food, production, marketing, factors, indicators, food market, marketing research, methodology.

Аннотация: В данной статье отражена роль маркетинговых исследований в развитии продовольственного рынка, факторы, влияющие на развитие продовольственного рынка, а также уникальность комплексных подходов в маркетинговых исследованиях. При этом обосновываются научно-теоретические аспекты методологии развития продовольственного рынка.

Ключевые слова: рынок, продукты питания, производство, маркетинг, факторы, индикаторы, продовольственный рынок, маркетинговые исследования, методология.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar tahlili oziq-ovqat sanoatida, xususan? oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini o'zgarish tendensiyalari pandemiya sharoitigacha bo'lgan davrda barqaror va jadal o'sib borganligini va pandemiyadan keyingi davrda sezilarli darajada pasayishga hamda 2021-yildan boshlab yana tiklanish fazasiga o'tganligini ko'rsatadi. Oziq-ovqat sanoatidagi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlashning asosiy omillari sifatida ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidagi samaradorlikni oshiruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish, shu bilan birga sohada marketing tadqiqotlarining yangi, zamonaviy va samarali tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarini shakllantirish belgilab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, dunyoda oziq-ovqat tanqisligi kuchayib bormoqda. Eksportga qo'yilayotgan cheklovlar va transport-logistikasidagi uzilishlar muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Tahlilarga ko'ra, joriy 2022-yilgi dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari narxi kamida 20 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Ming afsus, bolalar oziq-ovqatining narxlari undan ham yuqorilashi kutilmoqda.

2022-yili oziq-ovqat mahsulot importi O'zbekiston Respublikasida 2,2 mln. doll.ni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 25 foizga oshganligi yoki 441 mln.doll. ga ko'payganligi ko'rishimiz mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari asosan Qozog'iston (881 mln.doll.), Rossiya (747 mln.doll.), Belarus (105 mln.doll.), Ukraina (59 mln.doll.) va Turkiya (45 mln.doll.)dan keltirilgan. Albatta ushbu ko'rsatkichlarga joriy va kelajak yillarda, ma'lum sabablarga ko'ra, yetishish imkoniyati bo'lmaydi^[1].

Tadqiqotlar o'tkazishimiz natijasida respublikamızda oziq-ovqat bozorini rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirdik. 1-rasmda ushbu omillarni chizma ravishdagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatib o'tishga e'tibor qaratdik (1-rasmga qarang).



1-rasm: Oziq-ovqat bozorini rivojiga ta'sir etuvchi omillar [2]

Yuqoridagi rasmda keltirilganidek bolalar oziq-ovqati holatiga turli hil omillar ta'sir ko'rsatib, ularning hususiyatlariga qarab ijtimoiy-demografik, bozor va tashkiliy-iqtisodiy guruhlariga taqsimlash mumkin.

- **Ijtimoiy-demografik omillar** – hayot kechirish tarzini o'zgarishi, iste'mol qilish hususiyatlarning takomillashi, ayollarning bandligini oshishi, harid qilish qobiliyatini yuksalishi va boshqa hususiyatlarni keltirishimiz mumkin.
- **Bozor omillari** – iste'mol auditoriyasining barqarorsizligi; sanoat ishlab chiqarilayotgan bolalar oziq-ovqatiga bo'lgan ishonchsizlik; bolalar oziq-ovqati haqidagi axborotga ega bo'lmalik; bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini qisqa muddatda ishlab chiqarilishi va tez o'zgaruvchanligi sababli raqobat muhitida ishlash ko'nikmalari bo'lmaligi; mahalliy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi, ularning xalqaro standartlarga javob berishini mos bo'lishi va nisbatan arzonroq bo'lishi va hokazo.
- **Tashkiliy-iqtisodiy omillar** guruhiga quyidagilarni kiritsak bo'ladi: ekologik toza hom-ashyo bazasining mavjudligi; bolalar oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirishga ehtiyoj bo'lishi va unga ajratilgan kapital mablag'lar mavjudligi; sanitariya-epidemiologik talablarni kuchaytirilishi; bolalar oziq-ovqati sohasida ishlatilayotgan qadoqlash mahsulotlariga qo'yilgan talablarga rioya qilinishi; bolalar oziq-ovqatlarni ishlab chiqish texnologiyalar va xom-ashyo hamda tayyor mahsulotlarni saqlanish sharoitlarga o'rnatilgan qoidalarga rioya etish va boshqa omillar kiradi.

Tadqiqot natijalarida aniqlangan omillarni asosan ikki guruhga taqsimlashimiz mumkin:

- 1) to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi;
- 2) oziq-ovqat bozorini bilvosita ravishda rivojini ta'minlovchi omillar.

Buning o'tkazilgan tadqiqotlarimizda oziq-ovqat bozorini hajmini aniqlash borasida quyidagi formuladan foydalanganmiz:

$$E_p^n = E_p^b \cdot K_r \cdot K_u \cdot K_r \cdot K_x \quad (1)$$

bu yerda:

E_p^n - oziq-ovqat bozorining hajmi, mln.so'm

E_p^b - oziq-ovqat hajmining bazaviy ko'rsatkichi, mln.so'm;

K_r - tug'ilishning o'zgarishini inobatga oluvchi koeffitsiyenti;



K_u - aholi daromadi tuzilmasidagi bolalar oziq-ovqatiga ketgan harajatlar ulushini ifodalovchi koeffitsiyenti;
 K_r - raqobat darajasini ifodalovchi koeffitsiyenti;
 K_x - oziq-ovqati iste'molining hususiyatlarini inobatga oluvchi koeffitsiyent.
 Tug'ilishning o'zgarishini inobatga oluvchi koeffitsiyenti () quyidagicha aniqlanadi:

$$K_m = (Z_{t=1}^N) \frac{T_{j+1}}{T_j} / (N-1) \quad (2)$$

bu yerda:

T_j, T_{j+1} – bazaviy va keyingi yildagi tug'ilish ko'rsatkichlari;

N - qaysi yillar bo'yicha o'lchanayotgani.

Aholining daromadi tuzilmasidagi oziq-ovqatiga ketgan harajatlar ulushini ifodalovchi koeffitsiyent quyidagicha aniqlanadi:

$$K_y = 1 + \frac{\Delta x_b}{d_o} \quad (3)$$

bu yerda:

Δx_b - oziq-ovqatiga ketadigan harajatlarning o'rtacha oshishi, mln.so'm;

d_o – aholining o'rta daromadining darajasi, mln.so'm;

Raqobat darajasini ifodalovchi koeffitsiyent () asosan mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi holatni ifodalab, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_p = 1 + \frac{Q_{BOM} + Q_{BOT}}{Q} \quad (4)$$

bu yerda:

Q_{BOM} – oziq-ovqatini o'rtacha mahalliy va tashqi ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarish hajmi,

Q_{BOT} – O'zbekiston bozoriga oziq-ovqat mahsulotlarini o'rtacha yetkazib berish hajmi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini yuqori darajasi ($DX \leq 10$) ni ta'minlash uchun iste'molining xususiyatlarini inobatga oluvchi koeffitsiyent quyidagicha aniqlanadi:

$$D_x \leq 10 - (A_{sh} \cdot A_{om}) \quad (5)$$

bu yerda:

A_{sh}, A_{om} - oziq-ovqat bozorining hajmi o'rta yil aholi miqdorini o'sish tempi, shahar aholisi va oliy ma'lumotga ega bo'lgan aholi miqdori.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kelajakda o'rganilayotgan bozorning uch shaklda o'zgarishini inobatga olib: pozitiv, negativ va barqaror usullariga bo'lishimiz mumkin:


Pozitiv o'zgarishlar bozorning keskin o'sishi, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi xukumatining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bozorni to'ydirish siyosatini olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Negativ o'zgarishlar esa global iqtisodiy inqirozlar, Pandemiya yoki ma'lum voqealar bilan bog'liq bo'lgan holatdagi holatlar inflyatsiya, ishsizlik va boshqa salbiy iqtisodiy holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Albatta, bunday omillarga ekologik buzilishlar, tabiatning qonuniyatlarini buzilishi yer yuqoridagi issiqlik darajasini oshishi, muzliklarni erishi barcha ofatlarni oshishiga olib kelmoqda.

Demak, oziq-ovqatini ta'minlash, ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojlanishini rag'batlantirish, mahalliy resurslardan to'laroq foydalanish marketing tadqiqotlari natijalaridan to'laroq foydalanishni taqazo etadi. Hozirgi kundagi mavjud marketing vositalaridan to'la foydalanilgani yo'q, ba'zi korxonalardan unga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Vaholanki, sayyoramizda mavjud resurslarning chegaralanganligi, aholining tobora o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirish zarurligi bu iqtisodiyotning hal qilinishi muhim bo'lgan qiyinchiliklardan hisoblanadi. Shu sababdan tadqiqotlarimizda shu ikkala muhim omillarni qo'shib o'rgandik.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammoni hal qilishdagi ishlab chiqilgan raqobat ustunligini baholash usullini qo'llash uchun, birinchi navbatda, marketing tadqiqotlarini sifatli va samarali o'tkazishni tashkil etish lozim bo'ladi.

Bu jarayonni M.A.Ikramovning ilmiy ishlanmalarida ko'rsatilgan bosqichlarda amalga oshirilishi lozim ^[3]. 2-rasmda ushbu bosqichlarning ketma-ketligi keltirilgan.




2-rasm: Insonning zaruratidan to iste'molchigacha o'tiladigan bosqichlar

Marketingning konsepsiyalarini rivojlanishi bilan birga nafaqat iste'molchi xohish-istagi birinchi o'ringa chiqadi, balki marketing tizimining asosiy vazifalaridan bo'lib, bo'lajak talabni ham shakllantirish muhim o'rin tutadi. Haridorni mijozga aylantirish uchun uning moyilligini shakllantirish, ushbu brend yoki mahsulotga xohish bildirishini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Masalan, FOSSTIS tizimi, ya'ni o'zbek tilida talabni shakllantirish va sotuvni rag'batlantirish tizimidan unumli foydalanish borasida reklama, PR-kompaniya, ko'rgazmalar va boshqa tanishtiruv tadbirlarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bitta mijozni ushlab turish, taxminan oltita yangi haridorni jalb etish bilan teng ekan. Shu sababdan haridorni doimiy mijozga aylantirish borasida ham ko'p tashkiliy, iqtisodiy, eng muhimi ijtimoiy-psixologik tadbirlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Marketing tadqiqotlarining asosiy maqsadi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'rganish, uni qondirish yo'llarini qidirish, kerak bo'lsa ularning xohish-istaklarini to'laroq qondirish borasida ehtiyojni shakllantirish muammosini hal etish muhim o'rinni egallaydi. Albatta, bundayo holat, o'ziga hos marketing tadqiqotlarini amalga oshirish uslubiyotini ishlab chiqishini taqazo etadi.

Marketing tadqiqotlari natijasida olinadigan ma'lumotlar turli xil shakllarda tahlil qilinadi. Mavjud uslublarni guruhlashtirishga harakat qilib, ularni chizma ravishda ifodaladik (3-rasmga qarang).



3-rasm: Marketingdagi tadqiqotlar uslubining tizimi^[4]




Marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda marketing harakatlarining barchasidan bir vaqtda foydalanish lozim. Shundagina marketingli faoliyat iste'molchidan sanoat korxonalariga va savdoga, ulardan esa qarama-qarshi yo'nalishdagi uzluksiz axborot tizimini ta'minlaydi. Bu esa o'z vaqtida ishlab chiqarishda tovar assortimentiga, sotish shartlariga, xizmat ko'rsatish sohasiga o'zgarishlar kiritishga imkon beradi.

Respublikamiz erkin bozor munosabatlariga o'tar ekan, barcha tarmoq korxonalari moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichi- foyda bo'lib qoladi. Tovar va xizmatlarning yuqori sifatligi, ularni reklama qilish- marketingning muhim prinsipi, raqobat kurashishi sharoitida foyda olishning asosi hisoblanadi. Ammo, tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ijobiy natijalarga erishish uchun, doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar, jumladan, marketing tadqiqotlarini o'tkazish muhim o'rin egallaydi. Bunday holat globallashtirish yoki integratsiyalashuv jarayonlarini inkor etmaydi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki birorta davlat, shu jumladan, qudratli AQSH, Xitoy, Rossiya mamlakatlari ham ushbu jarayonlarsiz kelajagini ko'ra olishmaydi.

Albatta, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish korxonalari o'zi kam va tarqoq bo'lgani inobatga olgan holda, rasmda keltirilgan marketing tadqiqotlarini amalga oshirish uslublarining tizimi ushbu sohada qaysi marketing tadqiqotlari shakllaridan foydalanishni tanlab olish ko'maklashadi. Hozirgi kunda 3-rasmda keltirilganidek ko'proq psixologik, ijtimoiy va boshqa usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini va uning samaradorligini oshirishda, bizning fikrimizcha 4-rasmda keltirilgan marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda integratsion yondashuvdan foydalanishini tavsiya etir edik. Bunday yondashuvni amalga oshirishda uning barcha tomonlarning manfaatdorligini inobatga olinishi muhim o'rin egallaydi.



4-rasm: Marketing tadqiqotlarda integratsion yondashuv^[5]

Korxonalar va tashkilotlarning marketologlari chizmada keltirilgan vazifalarni bajarishda zamonaviy vosita va uslublardan foydalanish mug'im o'rin egallaydi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida biz tomondan oziq-ovqat mahsulotlari turlari bo'yicha prognoz ishlab chiqarishga harakat qildik. Bunda marketing tadqiqotlarini rivojlantirishga benchmarking imkoniyatidan kengroq foydalanishni xulosa qildik. 5-rasmda ushbu holatni ko'rsatib o'tishga harakat qildik 5-rasmga qarang).

Har bir bozor rivojlanishida raqobatga bardosh berish imkoniyati muhim rol o'ynab, bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar ham ichki va tashqi bozordagi raqobat muhitiga moslashishi zarur bo'ladi. Hozirgi paytda tashqi bozordagi raqobat to'g'risida gapirishimiz no'o'rin bo'lsada, ammo bunday holatga har bir tadbirkorlik subyekti tayyor bo'lishi kerak.



5-rasm: Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarda marketing tadqiqotlarini rivojlantirishda benchmarkingini qo'llash ^[6]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda aholi daromadining 40-50 foizi oziq-ovqatga sarflanadi. Shu bois bunday mahsulotlarni ko'paytirib, narx-navoning aholi ro'zg'origa ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, sifatli marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, ayniqsa, bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishini rivojlantirishni taqazo qiladi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishning asosiy maqsadi nafaqat ichki bozorning imkoniyatlari, balki tashqi bozorning holatini o'rganish, oziq-ovqat tovarlari bilan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Oxirgi yildagi tendensiyalarga e'tibor qaratsak, butun dunyodagi oziq-ovqat tanqisligi eksport qilishni chegaralanayotganligi, imkoniyat doirasida ichki ehtiyojlarni birlamchi qondirishga yo'naltirilmoqda. Ammo bunday holat O'zbekiston bozoriga o'zining salbiy ta'sirini olish borasida chora-tadbirlar ko'rish zarurligini, buning uchun samarali marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мейлиева, Д. (2022). Подходы к решению проблемы обеспечения продуктами детского питания в Узбекистане. Направления развития благоприятной бизнес среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 147-150.
2. D. Boboniyozovna. Marketing strategies in the baby food industry. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2023.
3. Ikramov M.A., Tadjibayeva N.G. Marketingda raqobat strategiyasini shakllantirish muammolari. Namangan muhandislik texnologiya instituti to'plami, -2019 y. -55-59 b.
4. А.П.Карасев, Маркетинговые исследования и ситуационный анализ.-М.: Юрайм, 2016. -41 стр.
5. Дилноза Бобониёз Мейлиева. К вопросам разработки маркетинговой стратегии предприятий, производящих продуктов детского питания. Управление инновационными и инвестиционными процессами и изменениями в современных условиях. Ст. -275-278, 2022.
6. D Boboniyozovna. Baby food industry and supply chain economics. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 122-126, 2023/6/12

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.